

ALMASHLAB EKISHNI LOYIHALASHTIRISH

Berdimurodov N.I.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

QXM fakulteti magistranti

Annotatsiya Almashlab ekishni loyihalashtirish xo‘jalikning asosiy yo‘nalishi, tuproq-iqlim sharoiti, suv va mehnat resurslari hamda texnika bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlashdan boshlanadi. Shular asosida tashkiliy-xo‘jalik rejasi tuziladi. Uning asosiy qismi yer tuzish va undan oqilona foydalanish hamda almashlab ekishni joriy etishdan iborat bo‘ladi.

Kalit so‘zlar tuproq xaritasi; agronomik kartogramma; eroziya; o‘tish rejasi; almashlab ekish tuzilmasi, o‘tish jadvali.

Kirish Almashlab ekishni loyihalashtirish uchun tuproq sharoiti haqidagi barcha ma‘lumotlar o‘rganiladi. Xo‘jalikda tuproqlar tekshirilib chiqiladi va bu tuproqlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Qaysi dalada qanday ekinni joylashtirish yaxshi samara berishi aniqlanadi. Tuproq sharoiti yomon bo‘lgan dalalar aniqlanib, ularni yaxshilash bo‘yicha tadbirlar rejasi tuziladi. Bog‘ va uzumzorlarni joylashtiriladigan yerlar aniqlanadi. Eroziyaga uchragan dalalar hisobga olinadi. Gidrotexnik va tuproqni himoya qilishga qaratilgan inshootlar, ihota daraxtzorlari tekshirib o‘rganib chiqiladi. Tuproq xaritasi va agronomik kartogramma ma‘lumotlari asosida haydaladigan yerlar bir nechta kategoriyaga bo‘linadi. Yerlarni kategoriyalarga bo‘lish har xil almashlab ekishlarni to‘g‘ri joylashtirish imkonini beradi [1].

Muhokama Almashlab ekishni joriy qilish ikki davrdan ya‘ni qo‘llash va o‘zlashtirish davridan iborat bo‘ladi. Almashlab ekishni qo‘llash – almashlab ekish loyihasini tuzish va uni asliga ko‘chirish, ya‘ni yer tuzish ishlarini bajarishdan iborat. Almashlab ekishni o‘zlashtirish – ekinlarni belgilangan navbatlab ekishga asta-sekin

o'tishdan iboratdir. Buning uchun o'tish rejasi tuziladi. Bunga ikki – uch yil talab etiladi. Almashlab ekishni loyihalash uchun qo'yidagi ishlarni bajarish zarur: Yer – suv hisobga olinadi; Fermer xo'jaligining istiqbol rejasida ko'zda tutilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hajmi belgilanadi; Almashlab ekishda mo'ljallangan ekinlarning hosildorligi hisoblab chiqiladi (1-javdalda aytib o'tilgan) Chorvachilik uchun yem-xashakka bo'lgan talab hisoblab chiqiladi, yem-xashak ekinlari uchun ekin maydoni, hosildorligi va katta-kichikligi belgilanadi. Fermer xo'jalik yerining katta-kichikligi va bo'linib ketganligi hisobga olinib, undagi almashlab ekish soni va strukturasi belgilanadi.

Xo'jalikda belgilangan almashlab ekishga qarab, ekinlarni navbat bilan ekish belgilanadi. Almashlab ekishga o'tish rejasi tuziladi, buning uchun dalalar tarixi, oldingi ekinlar ahamiyati hisoblanadi [2].

1-jadval

Paxtachilik fermer xo'jaliklarida tavsiya etilayotgan almashlab ekish tuzilmalari		
Almashlab ekish tuzilmalari	Ekinlarning salmog'i, %	
	g'o'za	g'alla va yem- xashak ekinlari
1	2	3
3: 6	66,7	33,3
3:7	70	30
3:9	75	25,0
2:4:1:2	66,7	33,3
2:4:1:3	70,0	30,0
2:5:1:4	75,0	25
2:7	77,8	22,2
2:8	80,0	20,0
1:4:1:4	80,0	20,0
1:3:5	55,6	44,4
1:3:6	60,0	40,0
2:1	67,0	33,0
3:2	75,0	25,0
3:4:1	50,0	50,0

Yerga ishlov berish, o'simliklarni parvarish qilish, o'g'itlash, begona o'tlar, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish tizimi ishlab chiqiladi. Almashlab ekish tuzilmasi 3:6, 3:7, 3:9 bo'lganda:

1. Birinchi yili beda quyidagicha ekilishi mumkin: Makkajo'xori, oqjo'xori, sudan o'ti, raygras bilan ko'k massa uchun yoki arpa bilan don uchun. Yuqoridagi tuzilmalarni joriy etishda birinchi daladan yanada jadal foydalanish mumkin. Bu holatda, birinchi

dalaga makkajo'xori silos uchun ekiladi, hosil yig'ib – olingandan so'ng, avgust oyida takroriy ekin beda, kuzgi arpa bilan ekiladi.

2. Almashlab ekish tuzilmasi 2:4:1:2, 2:4:1:3, 2:5:1:4 (bu tuzilmalar 3:6, 3:7, 3:9 tuzilmalarning intensiv shaklidir) bo'lganda yem-xashak va g'alla ekinlaridan ko'proq hosil olinadi. Yem-xashak dalalaridan quyidagicha samarali foydalanish mumkin.

3. Almashlab ekish tuzilmasi 2:7, 2:8 bo'lsa, uning birinchi va ikkinchi dalasidan 2:4:1:2 tuzilmasining birinchi va ikkinchi dalalaridan qanday foydalanilsa, xuddi shunday foydalaniladi.

4. Almashlab ekish tuzilmasi 1:4:1:4: yoki 1:5:1:5 bo'lganda, uning birinchi va oraliq dalalaridan 2:4:1:2, 2:4:1:3 tuzilmalarining oraliq dalasidan qanday foydalanilsa, xuddi shunday foydalanish mumkin.

5. Almashlab ekishning 1:3:5, 1:3:6 tuzilmalari sho'rlangan yerlarda qo'llaniladi. Birinchi dala meliorativ dala bo'lib, tekislash, Sho'r yuvish ishlari o'tkaziladi. Eslatma: g'o'za – beda almashlab ekish tuzilmalari fermer xo'jaligining yo'nalishi va talabiga qarab, ekinlarning salmog'i o'zgartiriladi. Asosan, g'o'za hisobidan, xo'jalik uchun zarur ekinlarni ko'paytirish mumkin [3;4].

Tuproq-iqlim sharoitlariga ko'ra, O'zbekistonning haydaladigan yerlari 2 mintaqaga bolingan. Tog' oldi yarim sahro mintaqasi va tekis sahro mintaqasi. Bu mintaqalar o'z navbatida 4 tadan kichik — kichik mintaqalarga bo'linadi. Har bir kichik mintaqaning tuproq sharoiti, ya'ni mexanik tarkibi, strukturasi, unumdorligi, madaniylashganligi, sho'rlanish darajasi va sizot suvlarining chuqur yoki yuza yotishi bilan bir-biridan farq qiladi. Almashlab ekishni loyihalashtirishda ana shu omillarning barchasi hisobga olinadi. Loyihani amalga oshirish rejasi bu o'zlashtirishning oxirgi bosqichi hisoblanadi. Unda ko'zda tutilgan tadbirlarni o'tkazish navbati va muddati, hajmi, qiymati hamda yaxshi tashkillashtirish uchun tavsiyalar beriladi. Loyiha muhokama qilingandan so'ng, yer tuzish ishlari amalga oshiriladi. Dalalarning chegaralari aniqlanadi. Yer tuzish ishlari tugagandan so'ng, almashlab ekish joriy etilgan hisoblanadi. Keyin qilinadigan ishlar almashlab ekishni qisqa vaqt ichida o'zlashtirishdan

iborat. Almashlab ekish sxemasida ko'rsatilgan ekinlar belgilangan dalaga joylashtirilsa almashlab ekish o'zlashtirilgan hisoblanadi. Almashlab ekishni o'zlashtirish uchun o'tish jadvali tuziladi. O'tish jadvalida 2-3 yil davomida ekinlarning joylashuvi ko'rsatiladi. Ba'zan o'zlashtirish uchun ko'proq vaqt ketishi ham mumkin. Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdi-ki, 3:6 beda-paxta almashlab ekishdan 1 don : 2 beda : 3 g'o'za : 1 don: 2 g'o'za almashlab ekishga o'tish uchun 3 yil ketgan, ya'ni to'rtinchi yili yangi almashlab ekish to'liq o'zlashtirilgan [5;6].

Xulosa asosida, Almashlab ekishning to'g'ri olib borilishini nazorat qilish rotatsion jadval va dala tarixi kitobi yordamida amalga oshirilishi hamda dala tarixi kitobida ekinlarni yillar davomida navbatlab ekilishi, tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirish bo'yicha tadbirlar qayd etib, jadval asosida yuritilishi darkor. Masalan: dalalarda o'tkazilgan meliorativ tadbirlar; yer haydash muddati, chuqurligi; organik va mineral o'g'itlar turi, me'yori, solish usuliari va muddatlari; ekin navi, ekish usuliari, me'yori; ekinlarni parvarish qilish (qator oralariga ishlov berish, begona o'tlarga, zararli organizmlarga qarshi kurash); hosilni yig'ishtirib ohsh muddati va usullari hamda gektaridan olingan hosil yozib boriladi. Bulardan tashqari tuproq xususiyatlarining yaxshi tomonga o'zgarib borishini ham qayd qilib boriladi. Dalada o'tqazilgan tadbirlar va tuproq xususiyatlari bir-biri bilan solishtirish asosida almashlab ekishni loyihalashtirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabayeva X., Xudayqulov J. O'simlikshunoslik. Darslik. - T.: —Fan va texnologiya, 2018. - 407 b.
2. Abdolnizozov O. —Chorvachilik asoslaril. Toshkent. 2010 y.
3. Bo'riyev X.CH., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O. Muxamedov M.M. —Ochiq yerda sabzavot ekinlar yetishtirishning progressiv texnologiyalari T., —O'zMEDIN||, 2002.
4. Boqiyev D.T., Xo'janazarov O'.E. Umumiy dehqonchilikdan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. T.Sharq 2010.
5. Zuyev V.I., Abdullayev A.G. —Sabzavot ekinlari biologiyasi va ularni yetishtirish texnologiyasil, T., —O'zbekiston, 1997.
6. Obidov A., Xalilov R., Aliqulov S. va boshqalar. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish. O'zbekiston faylasuvlar milliy jamiyati. T., 2018.